



O'ZBEKISTONDA AHOLI MIGRATSIYASI

Olimqulov Yashnar Maxmadamin o'gli

Samadov Jamoliddin Esan o'gli

Narziyev Furqat Fayzullo o'g'li

Boltayeva Dildora Abdumalikovna

Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim
yo'nalishi talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Aprel 2023 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil

Nashr qilindi: 05-May 2023 yil

KEY WORDS

Migratsiya, Urbanizatsiya, shahar, qishloq, aholi, O'zbekiston, viloyat, tumanlar, manzilgoh.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston respublikasining geografik o'rni, dunyo hamjamiyatida tutgan nufuzi, migratsiya oqimi, urbanizatsiyasi, shahar va qishloq aholisi tarkibi, shaxarlar soni haqida so'z boradi. Migratsiya jarayonining bugungi kundagi holati, takliflar, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan.

O'zbekistonda 1970 yilning ikkinchi yarmidan boshlab, yangi yo'nalish, ya'ni aholining respublikadan ko'chib ketishi kuzatila boshlandi. Ushbu jarayon yildan-yilga ko'paya borib, 1990 yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. O'sha yili davlat organlari tomonidan rasmiy ravishda qayd qilingan migratsiyaning manfiy qoldig'i-140 ming kishini tashkil qildi. Keyingi yillarda esa u asta-sekin kamayib bordi. 1999 yil bundan mustasno bo'lib, migratsiyaning manfiy qoldig'i keskin ko'tarilib ketdi. O'zbekistonda o'tgan asr 80-yillari oxirigacha sovet Ittifoqi respublikalari o'rtasida migratsiya aloqalari normal holatda edi. Chet mamlakatlar bilan migratsiya aloqalari juda oz edi. Ushbu yillarda respublikadan o'rtacha yiliga 100-150 ming odam ko'chib ketardi va shuncha odam ko'chib kelardi. Migratsiya jarayonidagi katta o'zgarish 1989-1990 yillarda ro'y berdi. Ushbu ikki yil ichida O'zbekistondan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 400 mingga yaqin odam ko'chib keldi, migratsiyaning manfiy qoldig'i esa -233,7 ming kishini, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan -34,1 ming kishini tashkil qildi. SSSR parchalangandan keyin, O'zbekistonda migratsiya jarayoni butunlay o'zgardi. O'zbekistondan rusiyzabon va boshqa millatlarning ko'chib ketishi, aksincha O'zbekistonga qo'shni respublikadan o'zbeklarning ko'chib kelish tendensiyasi kuchaya boshladi³⁷. Hozirgi kundagi tashqi migratsiyaning manfiy qoldig'ini asosan Yevropa millatlariga xos bo'lgan aholi tashkil qilmoqda. Masalan, 1991-1999 yillarda O'zbekiston shahar aholi manzilgohlaridan 356,8 ming ruslar, 32,3 ming ukrainlar, 55,5 ming yahudiylar, 22,6 ming nemislar 108,0 ming tatarlar ko'chib ketishdi. Respublikamizdan 1990-2003 yillarda jami 1,5 mln. kishi ko'chib ketdi, 500 ming kishi ko'chib keldi. Shunday qilib, migratsiyaning manfiy qoldig'i 10 mln. kishini tashkil etdi. O'zbekistonning ushbu yillardagi tashqi aloqalari asosan Rossiya, Ukraina va qo'shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan bo'ldi. Migratsiyada qatnashganlarning jami Rossiya hissasiga 50,9%, Ukrainaga 12,9%, Qozog'istonga 10,9% boshqa Markaziy Osiyo respublikalariga 13,2% to'g'ri keldi. MDH davlatlaridan tashqaridagi xorij mamlakatlari hissasiga 8,4% to'g'ri keldi. O'zbekiston aholisi

tashqi migratsiyasining manfiy qoldig'i ko'rsatkichlaridan Rossiya hissasiga 62,0%, Ukrainaga 20,4%, boshqa xorijiy mamlakatlarga 15,8% to'g'ri keldi. Tashqi migrantlarning asosiy ko'pchiligini ruslar, tatarlar, qrim tatarlari va yahudiylar tashkil qiladi. Bularndan tashqari mamlakatdan mesxetiya turklari, greklar, nemislar ham ko'chib ketishmoqda. O'zbekistonda hozirgi paytda yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq-shahar yo'nalishidagi doimiy migratsiya va o'qishga, ishlashga (vaqtinchalik) keladigan vaqtinchalik migratsiya oqimlari ham sezilarli darajada kamaydi. Ma'lumki, shaharlardan rusiyazabon aholining ko'chib ketishi yildanyilga ko'payib bormoqda. Ushbu vaziyat respublikada azaldan past bo'lgan urbanizasiya darajasining yanada kamayishiga olib kelmoqda. O'zbekiston aholisining ish bilan ta'minlanganlik darajasiga respublikadagi ichki migratsiya oqimlari ham bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki migratsiyaning ushbu turi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Mustaqillik yillaridagi sotsial-iqtisodiy islohotlar ta'sirida respublikalararo migratsiya aloqalarida ham pasayish ro'y bermoqda. Ushbu holat viloyatlararo hamda viloyat ichidagi migratsiya harakatlariga ham xosdir. Masalan, 1980-2003 yillarda Respublika ichki migratsiya hajmi 461,8 ming kishidan 250 mingga ya'ni 250 ming kishiga kamaydi. Viloyatlar ichidagi migratsiya ham ushbu davr ichida 283,6 ming kishidan, 138,0 mingga, ya'ni 118,6 ming odamga kamaydi. Respublika ichki migratsiyaning harakatlari va jami hajmi uning hamma asosiy yo'nalishlari bo'yicha (ayniqsa qishloq-shahar) kishi kamaydi. Mustaqillik yillarida mahalliy tadbirkorlarning chet mamlakatlarga mehnat safarlari kengaymoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda qo'shma firmalari va korxonalari bo'lgan xorijiy mamlakatlarga bunday safarlar ko'proq uyushtirilmoqda. O'zbekistondagi yirik qo'shma korxonalarining yosh ishchilari malakalarini oshirish, zarur mutaxassislikni egallab olish uchun Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniyaga o'qishga va ishlashga yuborilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston aholisining barqarorlashgan migratsiya turi – bu jahonning rivojlangan mamlakatlari AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniyalarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida va kollejlarda bilim olish uchun o'qishga ketayotgan yoshlardir. Ushbu migratsiya hukumatimiz tomonidan kadrlar tayyorlashning maxsus ishlangan milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Iqtidorli yoshlarni xorijdagi rivojlangan mamlakatlarda o'qitish uchun O'zbekistonda maxsus «Umid», «Iste'dod» jamg'armalari tuzilgan. Ushbu jamg'armalar orqali har yili iqtidorli yoshlar tanlab olinib, chet mamlakatlarga o'qishga yuboriladi. Ularning ko'pchiligini o'zbek millatiga mansub o'g'il va qizlar tashkil qiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin aholining xorijiy mamlakatlarga qisqa muddatli safari Mehnat vazirligi tomonidan amalga oshirilmoqda. Keyingi yaqin yillarda (1995-2004 yillar) respublika Mehnat vazirligi tomonidan ishlab kelish uchun xorijiy mamlakatlarga 89 ming kishi jo'natildi. Unchalik ko'p bo'lmagan ishchi migrantlar vaqtinchalik ishlab kelish uchun AQShga, Malayziyaga, Birlashgan Arab Amirligiga (BAA) jo'natildi. Mehnat vazirligi tomonidan xorijda ishlab kelishga jo'natilganlarning ko'pchiligini o'zbeklar (82%), koreyslar (15%) tashkil etadi. Chet mamlakatlarga shaxsiy bilim asosida jo'natilganlarning yarmidan ko'pi o'zbeklar qolgan qismi boshqa millatlar – ruslar, ukrainlar, yahudiylar va tatarlar hissasiga to'g'ri keladi. Keyingi yaqin yillar ichida mamlakatdagi 165 ta nodavlat va notijorat tashkiloti 117,2 ming kishini ish bilan ta'minladi. Ularning 41,2 mingtasi (35,2%) bevosita nodavlat notijorat tashkilotlari orqali, 76,0 ming (64,8%) esa ushbu tashkilotlarning vositachiligi orqali ishga joylashtirildi. Demak, bitta nodavlat va notijorat tashkiloti 710 ta odamni ish bilan

ta'minlagan. Shunday qilib, O'zbekistondagi aholi bandligining yangi turi respublika mehnat ko'pchiligini o'zbek millatiga mansub o'g'il va qizlar tashkil qiladi.

Migratsiya jarayonidagi katta o'zgarish 1989-1990 yillarda ro'y berdi. Ushbu ikki yil ichida O'zbekistondan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 400 mingga yaqin odam ko'chib keldi, migratsiyaning manfiy qoldig'i esa -233,7 ming kishini, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan -34,1 ming kishini tashkil qildi. SSSR parchalangandan keyin, O'zbekistonda migratsiya jarayoni butunlay o'zgardi. O'zbekistondan rusiyzabon va boshqa millatlarning ko'chib ketishi, aksincha O'zbekistonga qo'shni respublikadan o'zbeklarning ko'chib kelish tendensiyasi kuchaya boshladi.

Bugungi globallashuv sharoitida ertangi kunimiz, bugundan yaxshiroq bo'lishini hohlar ekanmiz, dunyo bo'ylab yuz berayotgan migratsiya jarayonlarini va uning rivojlanish muammolarini o'rganishimiz zarur. Buning uchun ayniqsa, aholining soni va ko'payishi sabablari hamda uning migratsiyasi omillari bilan bog'liq bo'lgan demografik ko'rsatkichlarni tarixiylik prinsiplaridan kelib chiqib, retrospektiv usulda talqin qilmog'imiz talab etiladi. Avvalambor ta'kidlash joizki, bugun ijtimoiy tarix va demografiya fanlarining umumiy rivojidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib, demografik vaziyatning buguni va kelajagiga bo'lgan qiziqish aholishunoslikning o'tmishiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda.

Mamlakatdagi navbatdagi katta ko'chish o'tgan asrning 90-yillar oxiri 2000-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Ushbu ko'chishni etnik vataniga qaytish jarayoni deb baholasa bo'ladi va unda asosan rusiy zabon aholining (ruslar, ukrainlar, tatarlar, beloruslar, latishlar, estonlar, litovlar, armanlar, gruzinlar va shu kabilar) Rossiya, Ukraina va Boltiq bo'yi mamlaktlariga ko'chishi boshlandi. Bu vaqtda ham intellektual salohiyatga ega kishilar, ko'pincha ilmiy tahqiqotchilar va o'z o'rniga ega bo'lgan universitet o'qituvchilarining bir qismi Yevropa va AQSh ga keta boshlaydilar. Ko'chish davrida boshqa millat vakillari bilan birgalikda mamlakatning eng yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan, ko'proq yevropacha, aniqrog'i rusiy zabon mahalliy kishilar ham ko'pchilikni tashkil etardi. Ularning aksariyat qismi tabiiy fan sohalari vakillari bo'lib, ular taniqli fizik-yadrochilar, ximiklar, biologlar, matematiklardan iborat bo'lishgan.

Mamlakat hududidagi migratsion jarayonlarning uchinchisi esa, 2005 yillardan avj ola boshladi. Bu vaqtda endi avvaldan shu hududda yashab kelgan qozoqlar, qoraqalpoqlar va qisman qirg'izlarning Qozog'istonga ko'chishini misol qilish mumkin. Ularning asosiy qismi, to'g'rirog'i yoshlar ushbu mamlakatning to'liq fuqaroligini olish uchun "reparasiya", ya'ni "ko'chirib kelish" (Qozog'istonda "oralman") maqomi bilan ko'chib keta boshladilar. Bu vaqtda Qozon va boshqird tatarlari Tatariston, Boshqirdiston va Rossiyaning boshqa hududlariga oila a'zolari bilan keta boshladilar.

Keyingi yillarda O'zbekistonda rusiyzabon aholining ko'chib ketishi keskin kamaymoqda. Bundan tashqari mamlakatimizda ko'chib ketganlarning yana qaytib kelishi (reyemigratsiya) sharoitlari kuzatilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki migratsiya harakatlarining pasayishi kuzatilmoqda, uning asosiy sabablaridan biri, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi murakkab sotsial-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonidir. O'zbekistonda hozirgi paytda yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq-shahar yo'nalishidagi doimiy migratsiya va o'qishga, ishlashga (vaqtinchalik) keladigan vaqtinchalik migratsiya oqimlari ham sezilarli darajada kamaydi. Ma'lumki, shaharlardan rusiyzabon aholining ko'chib ketishi yildanyilga ko'payib bormoqda. Ushbu vaziyat respublikada azaldan past bo'lgan urbanizasiya darajasining yanada kamayishiga

olib kelmoqda. Aholi migratsiyasining yo'nalishlari ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va joylanishi bilan, xo'jalik tarmoqlarining ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik darajasi va aholining turmush darajasidagi tafovutlar bilan belgilanadi. Ko'chib yuruvchi aholi to'rt yo'nalish bo'yicha harakatlanadi. Bular shahardan shaharga, shahardan qishloqqa, qishloqdan shaharga va qishloqdan qishloqqadir. Aholi harakati yo'nalishlari millatlar orasida har xil bo'lib, o'zbek, qozoq, tojik, turkmanlar asosan qishloqdan shaharga yo'nalishida harakat qilsa rus, ukrain, yahudiylar shahardan shaharga yo'nalishida harakat qilishganligi statistik ma'lumotlardan ma'lum bo'ldi. O'zbekiston mustaqil davlat deb tan olingan bir davrda aholining milliy tarkibini o'rganish katta ahamiyatga egadir chunki millatlarning ko'payish istiqbolni o'rganish faqat demografik nuqtai nazardan emas, balki siyosiy, sotsial-iqtisodiy rivojlanish yo'lini aniqlashda ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki O'zbekistonda aholi sonining o'sib borishi mehnat resurslarining tez o'sishiga olib kelmoqda. Ayniqsa qishloq joylarida yashaydigan aholining migratsion harakatchanligini oshirish muammosi eng dolzarb bo'lib qolyapti. Ana shu muammolarni to'g'ri hal etish O'zbekiston Respublikasi aholisining xududiy harakati va undagi o'zgarishlarni ilmiy o'rganishni talab etmoqda. Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri qishloq oilalarida ortiqcha ishchi kuchining to'planib qolishidir. O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi taraqqiyotida ishlab chiqaruvchi kuchlardan oqilona foydalanishning zarurligi, kichik va o'rta shaharlarni har tomonlama rivojlantirishni taqazo etadi. Kichik va o'rta shaharlarda mahalliy hom ashyo hisobiga yangi sanoat tarmoqlarini tashkil etish yoki xalq hunarmandchiligining umuman xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarishning xilma xil tarmoqlarini rivojlantirish asosida yangi ish joylarini tashkil qilib, ortiqcha mehnat yoshidagi aholini ish bilan ta'minlash muammosini ma'lum darajada hal qilish mumkin. Kichik va o'rta shaharlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga u yerga qishloq joylaridagi ortiqcha ishchi kuchlari jalb qilish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Bugun O'zbekistonda migratsiya progressiv asosida rivojlanmoqda. Mazkur mavzuni ilmiy jihatdan tadqiq etish katta mablag' va vaqt talab etadi. Ushbu mavzuni yoritish ham malakaviy bitiruv ishi chegaralaridan katta bo'lib hisoblanadi. Shu sababli biz, mavzuni o'rganish uchun sosiologiya fanida keng tarqalgan "biografik uslub"dan foydalanish bilan cheklandik. Mazkur uslub bilan muhojirlar tomonidan yozilgan xat, kundalik daftar, memuarlar o'rganilib chiqiladi. bizning nazarimizda, migratsiya jarayonida ishtirok etayotgan har bir O'zbekistonlikning yaqin qarindoshlari bor. Ular olgan xat (bu elektron xat ham bo'lishi mumkin) va ayrim kundalik daftarlari, rasmiy hujjatlar va foto hujjatlar ham bo'lishi tabiiy. Ularni o'rganish natijasida migrant, iqtisodiy ahvoli, ruhiy holati haqida muayyan tasavvurlar shakllanadi. Mamlakatimizda demografik jarayonlarning murakkab ko'rinishiga sabab bo'lgan omillardan biri aholining hududlar bo'ylab notekis taqsimotidir. Aholining mamlakat mintaqalarida turli zichlikda joylashuvi o'ziga xos muammo hisoblanib, bu holat mamlakatning tarixiy – geografik va tabiiy-iqlimiy xususiyatlari hisobiga yuzaga kelgan. Respublikamizda aholi soni sezilarli darajada o'sib borayotganligi sababli, uning zichligi ham oshib bormoqda, Aholi zichligi ko'rsatkichlariga tabiiy geografik iqlim, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va shu kabi omillar ta'sir qiladi. Shuningdek, aholining migratsiya harakatlari ham mehnat potensialining hududlar bo'ylab qayta taqsimlanishi va takror ishlab chiqarishning yuzaga keltiruvchi asosiy manbalaridan biridir

Migratsiya bir necha mezonlarga ko'ra tavsiflanadi:

- ❖ Migratsiya yo'nalishiga binoan (tashqi va ichki migratsiya);
- ❖ Aholi migratsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra (doimiy va vaqtincha);

❖Aholi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillarga ko'ra (iqtisodiy, oilaviy, etnik, diniy, siyosiy, ekologik (tabiiy);

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki bugungi kunda yurtimizga migratsion harakatlar yuqori cho'qqiga chiqib bormoqda O'zbekistonlik iqtisodchilarning fikricha, safarbarlikdan qochgan muhojirlar oqimidan "vahima qilishga hojat yo'q". Bu qisqa muddatda ijtimoiy sohalarga yuklamani oshirishi, ayrim sektorlarda narxlar ko'tarilishiga olib kelsa-da, uzoq istiqbolda iqtisodiy jihatdan ijobiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Mening o'ylashimcha, Rossiyadan kelayotganlar bizning bozordagi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni buza olishmaydi. Moskva, Sankt-Peterburg yoki boshqa yirik shaharlarni inobatga olmasa, Toshkentdagi narx-navo Rossiyaning boshqa shaharlaridan yuqori, ya'ni ko'chib kelayotganlarning ko'pchiligida Toshkentdagi talabni oshirib yuborish potentsiali yo'q, ularning aksariyati boy qatlam emas, balki urushdan qochib kelayotganlar. Kelsa, 50 ming odam ko'chib kelishi mumkin. Bu 35 mlnlik aholisi bor mamlakatning ichki bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikni buzib yubora olmaydi. Vahima qilishga hojat yo'q.

Iqtisodiyotda qiymatni insonlar yaratadi, ular iqtisodiyot uchun eng muhim resurs va boylik manbai. Shu jihatdan ham, Rossiyadan kelayotgan qochqinlarning ijobiy jihatlari mavjud, ular kelajakda qiymat yaratadi. 200 mingga yaqin mehnatga layoqatli rossiyaliklar chetga chiqib ketishdi. Bu qochqinlar borayotgan mamlakatga qisqa muddatli davrda qiyin bo'lishi mumkin, chunki ularni vaqtinchalik boshpana bilan ta'minlash kerak.

Oziq-ovqat narxlari haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsam, 100 mingta odam ovqat bozorida narxlarni keskin oshirib yubora olmaydi. Mamlakatga har yili keladigan turistlarning salmog'i ham bundan bir necha barobarga ko'proq. Bu masalaga his-tuyg'uni bir chetga surib qarash to'g'riroq bo'ladi.

Inson kapitali qiymat yaratuvchi kapital hisoblanib, undan foydalanmaslik qo'ldan boy berilgan eng katta imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Kelayotgan odamlar o'zi bilan yangicha fikr, yangicha yo'nalish olib keladi, jamiyatdagi g'oyalar xilma-xilligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavsizlikka taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, 1997.
2. O'zbekiston Davlat Statistika Departamentining 2001 yilga qadar chop etilgan respublika aholisining soni tabiiy o'sishi, migratsiyasi va ijtimoiy taraqqiyotiga oid statistik yilnomalar.
3. O'zbekistonda 1987, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari.
4. Qur'oni Karim Toshkent, 1992 y.
5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi Togakent. 1998 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 1992.
7. Abdurauf Fitrat. Oila. Toshkent, 1998 y.
8. Ayol-Oila-Huquq. Davra suxbati materiallari. Toshkent 1998 y.
9. Bo'rieva M.R. Oilada nechta farzand bo'lgani ma'qul. Toshkent, 1995 y.
10. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent, 1997 y.